

BERDAQ – MILLAT RUHINI YUKSALTIRGAN SHOIR.

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti

O'zbek tili va adabiyot kafedrası dotsenti

Kurambayeva Gulandam Karimbayevna

2-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti

Fundamental tibbiyot yo'nalishi talabasi

Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Berdaq – Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri, uning milliy ruhini yuksaltirishdagi o'rni va ijodiy merosi tahlil qilinadi. Shoirning asarlarida xalq dardi, ozodlikka intilish, adolat va vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgani yoritiladi. Berdaq ijodining adabiy va tarixiy ahamiyati, uning qoraqalpoq adabiyoti va madaniyatiga qo'shgan hissassi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada Berdaq she'rlari tahlil qilinib, ularning bugungi avlod uchun ham dolzarb ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shoirning xalq orasidagi hurmat-ehtiromi va uning asarlarining milliy ongini shakllantirishdagi o'rni ham maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: xilof , hattot, shoir poetikasi, falsafiy qarashlar, insoniy mardlik.

Oradan hali qancha yillar, asrlar o'tdi. Yurtimizda yangi-yangi avlodlar dunyoga keladi. Milliy davlatchiligimizni tiklab bizga taraqqiyot va farovonlikka erishish yo'lida mana shunday beqiyos imkoniyatlarni yaratib bergan istiqlolimiz jonajon Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin, o'chmas sahifa bo'lib qoladi.¹

Shavkat Mirziyoyev

¹ Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat vqquiyot va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. 31.08.2021

Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokratik shoirdir. U XIX asrda yashab ijod etgan. Shoirning asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li bo'lib, Berdaq uning taxallusidir. Mutaфakkir to'g'risida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Uning tarjimai holi va ijodiga oid ma'lumotlarni, asosan, o'zining asarlarida uchratish mumkin. U 1827-yil Orol dengizining janubida joylashgan Mo'ynoq tumanining Oqqal'a degan joyida kambag'al, baliqchi oilasida dunyoga kelgan. Berdaq o'n yoshligidayoq otasi Qarg'aboy Bo'ronboy o'g'li va onasidan ayrilgach, amakisi Qo'chqorboyning o'g'li Nazarbiy qo'lida tarbiya ko'ra boshlaydi. Berdaq o'n yoshidan ovul maktabiga, maktabni bitirganidan so'ng o'z bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida o'sha davrda yirik ilm maskani hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida tahsil oldi. U yoshligidan boshlab she'r yozishni mashq qila boshladi.

Sahro kengligi va donoligini o'z ijodida mujassam etgan Berdaq dunyoviy tamaddundan ancha chetda turib, Arastu, Aflotun, Navoiy, Fuzuliy, Maхtumquli singari allomalar asarlar asarlaridan qanday saboq olganligini va uning hayotining ko'p lavhalaridan o'zimizga o'rnak bo'la oladigan qismlarni olish mumkinligini ko'rsatib o'tmoqchimiz.

Xalq qo'shiqlari, turli afsonalar, ertaklar, matal, dostonlar bilan tanishish, mashhur shoirlarning she'rlaridan bahramand bo'lish mutafakkir badiiy ijodini kamolga yetib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Berdaq asta-sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylana bordi. Eng muhimi, she'rlariga o'zi kuy bastalab kuylay boshladi. Berdaq ko'p shaharlarga sayohat qildi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo'ldi. Urganch va Buhoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishdi. Berdaq Alisher Navoiy, Fuzuliy va Maхtumquli ijodlarini chuqur o'rganib, she'rlarini mutolaa qildi.

Zamondosh shoirlar bilan musohib bo'ldi. Berdaq she'rlarining aksariyati kambag'al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, uning og'ir mehnati, boy-zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'ravonligi va adolatsizligiga

bag'ishlangan. Uning she'rlarida insonparvarlik, tenglik, saxiylik, adolat, vatanparvarlik, merh-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadryatlar o'z aksini topgan. Berdaqning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini holisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi, ayniqsa, Xiva xonligi va Chor Rossiyasi hukmronligi davrida oddiy xalqqa nisbatan o'tkazilgan zulm-zo'rliklar shoirning bir qator she'rlarida ochiq tasvirlab berilgan. Shuning uchun u o'z zamonasidagi adolatsizlikdan, xon gumashtalaridan, soliq yig'uvchilardan, miroblarning o'zboshimchaligidan, zolimligidan noliydi, inson qancha mexnat qilmasin, muhtojlikdan chiqolmasligidan zorlandi:

Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang,

Kun ko'rmoqlik qiyin bo'ldi bu zamon.

Maqsadingga o'ylab-o'ylab yetmasang,

Qiyin bo'ldi kun ko'rmoqlik bu zamon.

Berdag o'zining "Solliq", "Bo'lgan emas", "Bu yil" kabi she'rlaridan xon va beklarning olib borayotgan siyosatini qoralaydi, ularning mexnatkash xalqqa o'tkazayotgan zulmini, shafqatsizligini tasvirlaydi. Berdag insonni yuksaklikka ko'taradi, xalqni katta kuch ekanligini ta'kidlab, hukmron sinf vakillarini mexnatkash xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi. Shoir o'zini xalqning ajralmas bir qismi, deb tasavvur qiladi.

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,

Xalqim bor-ku, yovdan o'chim olaman...

Berdag o'zi yashayotgan tuzumni, uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirning fikricha, mavjud siyosiy tuzum mexnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Bunday tuzumda faqat adolatsizlik, haqsizlik, ta'magirlik, o'zboshimchalik va boshqa insonga xilof illatlar hukm suradi. Shoir zolimlardan zorlanib bunday deydi:

Zolimlar tinglamas faqirning zorin,
Ular o'ylar o'z foydasin, o'z qornin.
Hech qachon zolimlar qo'lida borin,
Ep ko'rmaslar, bor bo'lsada, xalq uchun.

Berdaq o'zining ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan asarlarida, Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma'rifatli podshoh boshqarishi lozim, degan fikrga keladi. U o'z davridagi adolatsiz va zolim xon davlatni boshqarishga yaroqsiz, deb hisoblaydi. Shoirning “Omongeldi”, “Xalq uchun”, “Aydosbiy”, “Yaxshiroq”, “Bo'lgan emas”, “Ernazarbiy” asarlarida qoraqalpoq xalqining xonlar zulmiga qarshi qahramonona kurashi, milliy ozodlik harakati aks ettirilgan. Berdaq o'z faoliyatida, xatti-harakatida, maqsadiga erishishida erkin ekanligini yozadi.

Masalan; u “Ahmoq podsho” dostonida ayrim boylar va amaldorlarning jabr-zulmi oxirgi nuqtasiga borib tarqligandan so'ng sabr-toqati tugagan xalq o'z ixtiyori bilan ularga qarshi bosh ko'taradi, deydi. Shoirning “Ahmoq poshsho” degan dostonning bosh qismida ham o'z taqdiri haqida so'zlab bergan. Ushbu dostonda dushmanlari haqida ham yozgan. Shunday qilib, Berdaq ko'p asarlarida o'zining fikrlarini, qiyinchiliklarni ko'rsatgan. Hayotning oxirgi kunlarida Berdaq bir qizidan ayrildi. Qarilik chog'iga qaramasdan shoir asarlar yozishda davom ettiradi. Uning yaxshi asarlari “Ahmoq poshsho”, “Bo'lgan emas”, “Bizlarga yordam ber” va boshqalari aynan shu yillarda yozilgan.

Tarixiy muommolarga shoir asosiy e'tiborini bergan, o'zining achinarli hayoti haqida yurtining xalq botirlari va qashshoqligi haqida yozgan. Bu yillarda yozilgan asarlar, asosan xalqning mustaqillik uchun kurashganligi haqida bo'lgan. Yuqoridagi asarlarda, vatanparvarlik haqida fikrlarini bildirganini ham ko'rishimiz mumkin. Berdaqning ko'pgina asarlarida hayotimizning haqiqiy tomonlari ko'rsatilgan, Xiva xonligining hokimligi paytlari va yurtning rus imperiyasiga qarshi kurashish ham eslatilgan. Berdaqning ijodiy faoliyati, biylarning, boylarning, otaliqlarning, eshonlarning,

oxunlarning va boshqa katta ma'murlarning, ya'ni boshqalarning fikrlari va dunyoqarashlariga qarshi edi. Ular shoirni o'z tomonlariga o'g'dirmoqchi bo'ldilar buning uchun har qanday harakat qilishga tayyor edilar. Chunki, Berdaqning erkin va taqiqlangan asarlari xalqqa ta'sir qilishi mumkin edi. Lekin shoir o'z yo'lidan qaytmadi, shu sababli uni izidan taqib etganlar va u haqda Qoraqum eshonning ayg'oqchilari yetkazib turganlar.

Bu haqda shoir o'zining "Oqibat", "Bilmadim", "Ber endi" degan asarida yozgan. U o'zining "Ber endi" degan she'rida quyidagilarni aytgan edi.

Berdimurot, so'zla so'zin,
Dushmaningga tikib ko'zin.
Ishondirgil chog'lab o'zni,
Va'da ber endi, ber endi.
Chiqar bo'ldi jonim tandan,
So'rasangiz, xalqim, mandan.
Yaratgan, tilagim sandan,
Rahim qilgil zinhor endi.

Bu asarida shoir har bir aytgan so'zni nazarda tutish va ehtiyotkorlik bilan bu zamonda yurishni aytgan, chunki har bir qadamingni ta'qib etadiganlar bor deb yozgan. Berdaq ijodiy merosida axloq, xulq-odob, nafosat va go'zallik masalalari muhim o'rinni egallaydi. Uning she'rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, oddiy axloq qoidalarini to'g'risida qimmatli fikr uchraydi.

Berdaqning og'ir turmush tarzi uning loqaydligidan emas, balki shu yo'lda, ya'ni haqiqat, adolat millat oldida boylikni emas o'z vijdonini qo'yganligi uchundir. U har doim oddiy xalq tomonidan turib, ularning dard-u hasratlarini birga baham ko'rgan. Berdaq

og'ir soliqlardan qiynalayotgan qashshoq xalqning ayanchli ahvolini ko'rib, quyidagi "Soliq" she'ri orqali hukmron tabaqa vakillarini tanqid ostiga olgan:

Menga hech gap, eshagim bor,

Sotib berarman bir bozor.

Attang, sho'rli och Ernazar,

Unga qiyin bo'ldi soliq.

U o'tirgan- Qulimbet boy,

Tayyor oldida oppoq moy.

Och xalq yurar topolmay joy,

Tuhmat bo'ldi ushbu soliq.

Shoir "Izlar edim" degan she'rida ilimning buyuk insonlarini eslatgan. Masalan: Navoiy, Fuzuliy va boshqalar. Bu odamlar o'z hayotini ilmga bag'ishlagan insonlar edi. Berdaq shu insonlarning falsafiy qarashlari bilan tanishib chiqdi va insoniyatga bo'lgan muhabbatini o'z asarlarida ochib berishga harakat qildi. Bundan tashqari, shoirning she'rlarida oddiy xalq hayoti aks ettirilgan edi.

Uning "Xalq uchun", "Soliq", "Yoz kelarmu", "Bo'lgan emas" kabi she'rlarida mehnatkash xalq ommasining hayotidan olingan lavhalar mahorat bilan tasvirlangan. Bunda xalq boshiga tushgan musibatning ko'pchiligiga asosiy sababchi amaldorlar ekanligini aytib, ularning kirdikorlari ayovsiz fosh etilgan. Shoirning "Shajara", "Xorazm", "Omongeldi", "Oydo'stbiy", "Ahmoq podsho" kabi dostonlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan.

Masalan uning "Ahmoq podsho" dostonini oladigan bo'lsak bunda ham shoir o'z kechinmalarini bu dostonga solganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki Berdaq bu

dostonnishi bir yilda yozganini, yoshi ancha ulg'ayganini va boshqa kechinmalarini aytib o'tgan.

Qarasam, yoshim yetibdi,

Tish tushib, ishim bitibdi.

Yigitlik boshdan o'tibdi,

Berdimurod, holingga boq.

Bu yerda shoir hayotda ancha narsani boshidan kechirganini va oq-qorani tanib, yaxshi-yomonni farqini bilish yoshidan o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Mana bir zumda yigitlik davri ham o'tib ketganini bilmay qolganligini, hayoti davomidagi qiyinchiliklar, nohaqliklar, oddiy xalqning naqadar ezilganligini u o'z yigitlik davrida ko'rdi. Shu tashvishlar bilan yoshi ulg'ayganligiga hatto o'zi ham ishonmayotganini ko'rishimiz mumkin.

Chunki shoir o'ziga "Berdimurod, holingga boq" demoqda bu narsa shoirning o'ziga naqadar ayanchli hol ekanligini, hattoki o'zi ham o'z holiga achinish bilan bormoqda.

Ko'p yillar o'ylab yurgan so'ng,

Yaxshi-yomonni bilgan so'ng.

Yoshim ellikka kelgan so'ng,

Bu qissaga tilim urdim.

Bu yerda shoir bu dostonni ko'p yilgi hayotiy tajribaga tayangan holda yozilganini aytmoqda. Biz shu yerda yana bir narsaga e'tiborimizni qaratishimiz kerak chunki, shoir bu qissani yoshi ellikka kirganida boshlaganini bilib ilamiz. Bu yerda ham shoir haqidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Bu narsa yuqorida aytib o'tganlarimizni isboti hisoblanadi. Shoirning bir orzusi bor edi u ham xalqiga xizmat ko'rsatish bo'lgan. Xalqning mard o'g'illari o'z xalqi va yurti uchun bor kuchini berishlari, kerak bo'lsa, jonini

ham berishlari lozim degan. Bu haqda biz Berdaqning quyidagi so'zlaridan bilib olamiz. "O'z tug'ilgan yurtning uchun, sen ham yashab ham o'lishing zarur, o'z yurtningni baxti uchun xizmat qilgin, bundan ham ortig'i nima bo'lishi mumkin" degan edi. Buyuk vatanparvar, yurtining qahramonlarini o'z xalqiga xizmat qilishlarini aytgan, ammo boylar va feodallar Berdaqni so'zlariga hech ahamiyat bermaganlar, ular uchun shoirning she'rlari sariq chaqaga ham arzimadek tuyulardi ularning nazarlarida. U paytda hokimyat donishmand insonlarni taqib ostiga olar edi. Berdaqning xalq va uning bilimdon, adolatli sardori haqida fikrlar uzoq vaqt davomida oddiy xalqning orasida yangragan.

Shoir o'tgan kunlarining tarixini o'rganib chiqqan, tarixdagi ma'lumotlarni, xalq qo'zg'alonlari haqida xonlar va feodallar haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqqan edi. Shoir o'z xalqini boshida adolatli shoh yoki xon bo'lishini istardi.

Bu asar yozilgandir,

Kambag'alning hayoti notinch.

Zamon kundan-kun o'zgarar, yomon tomonga,

Adolatli podshoh kelarmu?

Shoirning bu to'rtligi bilan u zamonning o'zgarishiga umid bog'laganligini va bu umidi hech qachon so'nmaganligini bilib olamiz. Shoir o'zining "Shajara" dostonida Chingizxon ezgulik munosabatida bo'lgan, u Iskandar Zulqarnaynga o'xshash qattiqqo'l bo'lgan. Sharqning badiiy adabiyotida ular bilimdon, adolatli bo'lganliklari yozilgan. Bir tomondan e'tibor berishimiz kerakki, bu adabiyotlar o'sha davrning boylarining, juda ko'p hattotlarning qo'llaridan o'tgan. Bu yerda ular badiiy adabiyotda juda ulug'langanlar.

Qoraqalpoq haqidagi dostonlar tahsirida, Berdaq qahramonlar, botirlar haqida orzu qiladi. O'zining "Izladim" degan she'rida shoir bu orzusini berkitmagan balki, uni ochiq ayta olgan. Shoir shu she'rida shunday yozgan edi.

Sherdek yuragi bor, haqiqiy qahramonni izladim,

Quyinni qilmishi o'ldirar, yigitni g'ururi o'ldirar.

Agarda "Edigey va Alpomish" tirilganida,

Men ularni izlab topardim. –degan edi

Berdaq o'z sherlarida bolalarni tarbiyalash, kattalarni hurmat qilish, yosh avlodga vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat, xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik g'oyalarini singdirishga intildi. Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri, asl farzandidir. Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Berdaq poetikasining takrorlanmas bir qirrasini uning insiniy mardligi. U o'zining haq so'zini aytishda na zolim dushman qilichidan, na jallod doridan qo'rqmagan:

Bulturgidan bu yil yomon,

Endi qanday bo'ldi zamon.

Kambag'allar qolmay omon,

O'n tilladan keldi soliq.

O'z davrining qozi-beklariga, zo'ravonlariga qarshi ochiq-oydin haqiqatni she'r bilan bitish shoirlarning mardigagina nasib etadi. Shuning uchun ham mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov Berdaq ijodi bilan tanishganidan so'ng o'zining Berdaq nomiga quyidagi gaplarni keltirgan: "Berdaq – haqiqatning oldida yigit bo'lib qoldi". Berdaq asarlari va she'rlari birqator jahon tillariga tarjima qilingan.

Ayniqsa, o'zbek tilida Mirtemir va Shuhrat domlalar, rus tilida Semyon Lipkin va Naum Grebnevning tarjimalari mashhur. Bugungi kunda Berdaqning adabiy merosi yangi avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b.25.

2. Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b.91.
3. Berdaq she'riyatidan Mirtemir tarjimasi. T.:1977
4. www. Vikipediya: Adabiyot. Maqolalar to'plamlari.